

IJTIMOY SOHANI MOLIYALASHTIRISHDA VAQF
AMALIYOTINING O'RNI

*Abdullayev Firuz
O'zXIA, magistranti*

Annotasiya: Maqolada Vaqf inisstitutining inson va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rni haqida so'z boradi. Vaqf ham zakot kabi boyliklar taqsimoti va ularning samaradorligi oshishiga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash, infratuzilma, shaharsozlik, ta'lim tizimi rivojiga kiritilgan vaqf ko'rinishidagi beminnat sarmoyalar, davlat byudjetining ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan qismining muayyan darajada o'rnini qoplaydi va shu orqali davlat xarajatlarining bir qismini o'ziga oladi. Mamlakat infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiyot o'sish sur'atlarining tezlashishiga va barqaror iqtisodiyotga erishishga yordam beradi.

Asosiy tushunchalar: Ijtimoiy moliya, vaqf, zakot, qarzi hasan, fond, vaqf mulki, vaqf jamg'armalari, ushr, fitr va fidya.

Mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar davrida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy sohani moliyalashtirishda yangicha yondashuvlar samarali natija bermoqda. Ulardan biri sifatida ijtimoiy moliyalashtirishni amalga oshirishda vaqf institutidan foydalanishni alohida e'tirof etish mumkin. Vaqf insitutlari mamlakatda mavjud moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va ijtimoiy sohaga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham ushbu sohani rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5416-son Farmoniga asosan «Vaqf» xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Mazkur fond 2018-yil 10-may kuni Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Ushbu fondni tashkil etilishi vaqf amaliyotining istiqboldagi muvaffaqiyatlari uchun dastlabki qadam bo'ldi¹.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida vaqf termini quyidagicha izohlangan: "Vaqf" so'zi arabchadan olingan bo'lib – musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk. Vaqfnoma orqali rasmiylashtiriladi. Yer-suv, uy-joy, maktab, masjid, shifoxona va boshqalar vaqf mulki bo'lishi mumkin. O'z mulkini vaqfga topshirgan shaxs mazkur mulkka nisbatan egalik huquqini yo'qotadi. Lekin uning o'zi yoki oila a'zolari yoxud uchinchi bir shaxs vaqf mulkidan vaqfnomada qayd etilgan maqsadlarda foydalanilayotganligini aniqlash uchun vaqf mulkini boshqarish huquqini saqlab qolishi mumkin. O'z mulkini vaqf mulki sifatida topshirgan shaxsning farzandlari yoki

¹ <https://lex.uz/>

boshqa avlodlari mazkur vaqf mulkidan keladigan daromadlardan nafaqa olib turishi mumkin. Vaqf mulkini shariat qonuni bo'yicha davlat boshlig'i yoki qozi nazorat qiladi

Mamlakatimizda tashkil etilgan "Vaqf" xayriya jamoat fondining asosiy vazifalari sifatida masjidlar va diniy ta'lim muassasalarining binolarini qurish, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish, obodonlashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, me'moriy ahamiyatga ega ziyoratgohlarni saqlash, ta'mirlash, obodonlashtirish, ularning infratuzilmasini yanada rivojlantirish, diniy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini moliyalashtirish, ularning professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, mutaxassislari va o'quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, masjidlar va ziyoratgohlar xodimlarini, xususan imom-xatiblar, imom noiblari, mutavallilar, muazzinlarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yetuk olim va ulamolari qatlamiga mansub diniy-ma'rifiy asarlarni chop etish va aholiga yetkazishga ko'maklashish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash keltirib o'tilgan.

Fond tomonidan "Kitob", "Ilmga ko'mak", "Masjid", "Malham", "To'ylar", "Ro'zg'or", "Ehtiyojmandlarga ko'mak", "Haj va Umra ziyoratiga ko'mak", "Obod xonardon", "Vaqf mulklari va Obi-hayot" aksiyalari yo'lga qo'yilgan. Ushbu aksiyalar doirasida xalqqa kitoblar tarqatish, talabalarning kontrakt to'lovlarini to'lab berish, masjidlar qurish, bemor bo'lib davolanishga mablag'i yetmayotgan odamlarga moddiy ko'mak ko'rsatish, to'y o'tkazish imkonni bo'lмагan insonlarning to'ylarini o'tkazib berish yoki shu maqsadda mablag' ajratish, ehtiyojmandlarga ro'zg'or va boshqa moddiy ko'maklarni ko'rsatish, haj va umra ziyoratini amalga oshirishga qodir bo'lмагan insonlarning ushbu ziyoratni qilishlari uchun moddiy ko'mak ko'rsatish, uy-joyga yoki uning ta'miriga muhtoj insonlarga uy qurib yoki tamirlab berish, shuningdek, suv yetib bormagan chekka-chekka hududlarda suv chiqarish ishlari amalga oshiriladi. Mazkur faoliyatlar tariximiz davomida davlat va xalqqa xizmat qilib kelgan vaqflar faoliyati bilan aynan uyg'undir.

"Islomiy ijtimoiy moliya – vaqf, zakot, sadaqa, mikromoliya – ommanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining halqasidir. Samarali vaqf boshqaruvi islam jamiyatida boylikni ixtiyoriy, ammo doimiy taqsimlash natijasida olingan naqd yoki naqd bo'lмагan mablag'lar ko'rinishidagi aktivlarni saqlab qolishga yordam beradi. Vaqf muassasasi musulmonlar va islomiy shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy hissalarini shariatga muvofiq ravishda oshirish uchun ushbu qiyamatni o'zgartiradi. Vaqf islamning dunyoga qo'shgan eng muhim hissalaridan biri hisoblanadi" – deb ta'kidlaydi INCEIF prezidenti Professor Azmi Umar².

Vaqf amaliyoti ijtimoiy sohani yaxshilash, aholi farovonligini oshirish, moliyaviy ahvoli og'ir, ta'lim olish uchun yetarli mablag'i bo'lмагan aholi qatlamiga ijtimoiy

² Revitalization of Waqf for Socio-Economic Development, Volume II

yordam ko'rsatish shakli bo'lib, bunda bevosita aholining yuqori daromadli qatlami pul mablag'larining qayta taqsimlanishini kuzatish mumkin. Vaqf mulklari egaligi va tasarrufiga ko'ra xususiy mulk shaklidan farq qiladi. Shu bilan birga, davlatga ham tegishli hisoblanmaydi. Vaqflarni jamiyatning ma'lum ehtiyojlarini qondiradigan jamoa mulki deyish mumkin³.

Vaqf, kutubxonalar, maktab-madrasalar, oliv ta'lim muassasalari, shifoxonalar, yetimxonalar, musofirxonalar, infratuzilma inshootlari qurish va boshqa shu kabi loyihalarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, vaqf ingliz huquqiy tizimida ishonch institutini yaratish uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Vaqf Angliyaga arablar hukmronlik qilgan davrda, Sitsiliya orqali kirib kelgan. Masalan, Oksford universiteti vaqfga o'xshash mexanizm asosida tashkil etilgan.⁴

Vaqf tizimining inson va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rniga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

1. Vaqf ham zakot kabi boyliklar taqsimoti va ularning samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

2. Sog'liqni saqlash, infratuzilma / shaharsozlik, ta'lim tizimi rivojiga kiritilgan vaqf ko'rinishidagi beminnat sarmoyalar, davlat byudjetining ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan qismining muayyan darajada o'rmini qoplaydi va shu orqali davlat xarajatlarining bir qismini o'ziga oladi (davlat byudjetidan tejab qolningan mablag'larni esa iqtisodiyotning boshqa sohalarga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi).

3. Mamlakat infratuzilmasining yaxshilanishi iqtisodiyot o'sish sur'atlarining tezlashishiga va barqaror iqtisodiyotga erishishga yordam beradi.

4. Mamlakat fuqarolari (va hatto boshqa yurtlardan kelgan qiynalib qolgan musofirlar)ning davlat va yurtning badavlat kishilaridan (ularning vaqf uchun ajratgan boyliklari sababli) roziligi sabab jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va umumiylu muhit yaxshilanadi.

5. Vaqfning sog'liqni saqlash va ta'lim sohasi rivojiga qo'shgan hissasi mamlakat fuqarolari uchun imkon qadar teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi, teng imkoniyatlar esa ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Vaqf amaliyoti vaqf fondini tashkil etish va ulardan aholiga ijtimoiy ko'mak berishda foydalanishga asoslanadi. Fondning mablag'lari 3 qismga bo'linadi:

1. Xayriya bo'limi.
2. Vaqf bo'limi.
3. Zakot, ushr, fitr va fidya bo'limi.

Bilishimiz kerakki, hozirgi kunda 3 ta bo'limning ham banklarda alohida-alohida hisob raqamlari mavjud. Masalan, bir kishi zakot uchun fondga mablag' o'tkazsa,

³ <https://islommoliysi.uz/uz/>

⁴ Gaudiosi M. M. The Influence of the Islamic Law of Awqaf on the Development of the Trust in England: The Case of Merton College// University of Pennsylvania Law Review. 1988. Vol. 136. N 4. P. 1231–1261.

ushbu mablag‘ zakot bo‘limiga tushadi. Shu bilan birga, shariatda aytilgan o‘rinnlarga sarf qilinishi aytilmoqda. Umumiy qilib aytganda, fond faqatgina vaqf mulkidan iborat emas. Fondga kelib tushgan mablag‘lar masjidlar va diniy ta’lim muassasalarining binolarini qurish, ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, diniy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, mutaxassislari va o‘quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator ishlar uchun sarflanadi.